

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT  
MILLIY INSTITUTI



Pedagogika fanlari

13.00.02 – “Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi”  
ixtisosligi bo'yicha

DOKTORANT VA TAYANCH DOKTARANTLAR UCHUN  
QABUL IMTIHONI

D A S T U R I

Toshkent – 2024

Ushbu dastur A.Avlonyi nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Kengashining 2024-yil 18-oktabrdagi 6-son majlisida tasdiqlangan.

## **ANNOTATSIYA**

Ushbu 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va ixtisosligi fanlari bo‘yicha tayanch doktarantura qabul imtihoni dasturi talabgorlarning nazariy va kasbiy tayyorgarligi darajasini, ushbu fanning shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiyligining konsepsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, mazkur bilimlar tarmog‘ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni qanchalik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganlik darajasini aniqlash doirasida tuzilgan bo‘lib, unda o‘qitish metodikasining umumiyligining masalalari bilan bir qatorda har bir fanning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, bilim va ko‘nikmalarga qo‘yiladigan talablar, imtihon savollaridan namunalar tavsiya etilgan.

<b>Tuzuvchi:</b>	p.f.d.(DSc), dots. M.Ergasheva f.f.f.d.(PhD), v.b. dots. L.Mirzoxidova
<b>Taqrizchilar:</b>	f.f.d.( DSc), prof. D.Urinbayeva p.f.d.( DSc) prof. Sh.Abdullayeva

Ushbu dastur “Pedagogika va psixologiya” kafedrasining 2024-yil 15-oktabrdagi 10-sonli yig‘ilish qarori bilan institut Kengashiga tavsiya etilgan.

## KIRISH

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (*maktab ta’limi yo‘nalishi*) ixtisosligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotchilarni tayyorlash respublikamizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarini amalga oshirishning asosiy omillaridan biri bo‘lib, uning o‘ziga xosligi tadqiqotlar sohasi va yo‘nalishining keng qamrovli ekanligi bilan belgilanadi. Mazkur ixtisoslik doirasida fanlarni o‘qitish metodikasi va fanga oid muammolarning mактабгача та’лим, умумиј о‘рта та’лим, о‘рта максус касб-хunar та’лим, синфдан ва мактабдан ташқари та’лим, олий та’лимдан keyingi та’лимга oid pedagogik muammolarning hal etilishi ko‘zda tutiladi. Ushbu ixtisoslik pedagogika fanining mamlakatimiz ta’lim tizimining bosqichlarida umumta’lim fanlari bo‘yicha ta’lim mazmuni va metodikasini takomillashtirishning metodik asoslarini ishlab chiqishga oid muammolarni tadqiq etuvchi mustaqil soha bo‘lib, mazkur ixtisoslik bo‘yicha bajarilgan dissertatsiya ishlari Respublikamiz uzlucksiz ta’lim tizimining taraqqiyotiga muayyan hissa qo‘sishga qaratiladi. Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (*maktab ta’limi yo‘nalishi*) ixtisosligi sohasiga oid dissertatsiyalarda jamiyatning ijtimoiy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalardagi o‘zgarishlar talablari asosida umumta’lim fanlarini o‘qitish mazmuni va metodikasini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik, metodik asoslari, davlat ta’lim standartlarini takomillashtirish metodologiyasi, fanlarni o‘qitish metodikasining qadimiy-tarixiy hamda zamonaviy mazmuni, metodlari, shakllari, vositalariga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy, amaliy-metodik muammolar tadqiq etiladi.

**Fanning umumiy masalalari.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmonida uzlucksiz ta’lim tizimini takomillashtirishga oid belgilangan vazifalarning mohiyati.

2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzlucksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son qaroridan pedagogika sohasini rivojlantirishga oid vaziflarning tasnifi.

**Ta’lim ijtimoiy madaniyat fenomeni sifatida.** Ta’lim va shaxs. Ta’lim va jamiyat. Ta’lim, fan va madaniyat. Ta’lim umuminsoniy ijtimoiy tajribani egallah vositasi. Bilish nazariyasi ta’lim jarayonining metodologik asosi ekanligi. Ta’lim jarayonining mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari, qarama-qarshiliklari va mantiqiy tuzilmasi. Ta’lim qonuniyatlari va tamoyillari. Asosiy didaktik nazariyalar: turli ta’lim sistemalarida shaxsni rivojlantirish nazariyalari. Ta’lim maqsadlari va taksonomiyalari, rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi. O‘quv faoliyati nazariyasi va uning subyekti. Mazmunli umumlashtirish nazariyasi. Aqliy xatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi. Tushuntirish-illyustrasiyalash, muammoli, dasturlashtirilgan va kompyuterli ta’limni amalga oshirish nazariyalari. Ta’limning ta’limiy-tarbiyaviy

va rivojlantiruvchi funksiyalari. Ta’lim jarayonining tuzilishi, maqsadlari va natijalari. Ta’limning ikki tomonlama va shaxsga yo‘naltirilgan harakatlari. O‘qitish va o‘qish jarayonini yagonaligi. Ta’lim va o‘quvchilar o‘quv imkoniyatlarining o‘zaro mutanosibligi. Yosh psixologiyasi. O‘quvchilarga individual yondoshish psixologiyasi. Darsning psixologik-pedagogik tahlili, o‘quvchi shaxsi va guruh jamoasi. Ta’lim va mustaqil ta’limni amalga oshirish muammolari. O‘qituvchi ta’lim jarayonining subyekti ekanligi.

***Ta’lim jarayonida o‘zaro muomala va dialogni amalga oshirish muammolari.***

Kasbiy pedagogik faoliyatining mohiyati. Pedagogik mahoratning komponentlari. O‘qituvchi – rahbar va tarbiyachi sifatida. Ta’limning psixologik qonuniyatlarini va amalga oshirish mexanizmlari. Ta’lim olish jarayonining psixologik mohiyati va tuzilishi. O‘zlashtirish jarayoni psixologiyasi. O‘quvchilar o‘quv faoliyatining motivatsiyasi. Ta’lim mazmuni va uning ilmiy asoslari. Tabiat, jamiyat, inson, texnologiya va faoliyat usullari haqidagi bilimlar sistemasi. Umummadaniyatni va tajribani egallash va saqlashni ta’minlovchi intellektual va amaliy ko‘nikma va malakalar tizimi. Ijodiy tajriba faoliyati. Ta’limni insonparvarlashtirish va ijtimoiylashtirish. Ta’lim mazmunining milliylik va baynalminallik jihatlari. Davlat ta’lim standartlari. Ta’lim mazmunini shakllantirish va tanlash me’yorlari. Ta’lim mazmunini me’yorlovchi normativ hujjatlar.

***Ta’lim texnologiyalari va o‘qitish metodlari.*** Ta’lim texnologiyalari oldindan qo‘yilgan tashxislanuvchi aniq maqsadlar va etalon asosida ta’lim jarayoni oldindan loyihalashtirish va kutilayotgan natijani kafolatlovchi tartiblangan, tizimlashtirilgan xatti-harakatlar, amallar va muammolar majmuasi sifatida. Pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari. Rivojlantiruvchi, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan modulli, muammoli, didaktik-o‘yinli, kontekstli, axborotli, tabaqaqlashtirilgan, multimediali, o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi texnologiyalar. Ta’lim nazariyasi va metodlari. Metod haqida tushuncha va uning tasnifi. Ta’limning og‘zaki metodlari, o‘qitishning induktiv va deduktiv metodlari. Reproduktiv va muammoli-izlanuvchan o‘qitish metodlari. O‘qitishda o‘quvchini rag‘batlanirish metodlari. O‘qitishni va uning natijalarini nazorat qilish metodlari. O‘qitish natijasini baholash psixologiyasi. Tashxislovchi, ogohlantiruvchi, joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari. Og‘zaki, yozma va kompyuterli nazorat turlari. O‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini, o‘qitish natijalarini baholashda xolislik, “formalizm”ga yo‘l qo‘ymaslik shart-sharoitlari. Psixologik-pedagogik diagnostikaning asosiy muammolari. Ta’lim jarayonini tashkil etish modellari. Ta’lim muassasalarining tiplari. Ta’limda innovatsion jarayonlar. Mualliflik maktablari. O‘qitishni dialogli, guruhli va ommaviy (frontal) tashkil etish shakllari. Sinf dars tizimi. O‘qitishni tashkil etishning boshqa shakllari: praktikumlar,

seminarlar va fakultativlar. O‘quvchilarning uy vazifasini bajarishlarini tashkil etish muammolari. Mustaqil ta’lim (eksternat); kunduzgi va sirtqi, masofaviy va boshqalar.

**Ta’lim vositalari.** Moddiy-ma’naviy madaniyat elementlari va predmetlari ta’lim vositasi sifatida. Ta’lim mazmunini didaktik vositalar orqali modellashtirish. Ta’lim vositalarining ko‘p xilligi va uni sistemalashtirish. Dasturiy pedagogik vositalar. Ta’limda audiovizual va kompyuter vositalari. Telekommunikatsion o‘quv vositalari. Avtomatlashgan ish o‘rni. Fanni o‘qitish metodikasining predmeti. Fanni o‘qitish metodikasining tarkibiy qismlari. Umumiyo‘rtta ta’limda, oliv ta’lim va oliv ta’limdan tashqari, darsdan va sinfdan tashqari ta’limning maqsadlari. Ta’limda didaktik tamoyillarni amalga oshirish. Darslarda tarbiyalash va rivojlantirish: ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, estetik va ma’naviy tarbiya. Mantiqiy va obrazli tafakkurni rivojlantirish, fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish. Maktab matematika kursining mazmuni. Maktab fan kursini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari.

**Fanni o‘qitishning metodlari va shakllari.** Ularning tasnifi. Umumdidaktik va xususiy predmetli o‘qitish metodlarini o‘zaro aloqadorligi. Fanni o‘qitishning empirik metodlari: kuzatish, tajriba, o‘lchash. Mantiqiy metodlari: taqqoslash va analogiya, umumlashtirish, abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, analiz va sintez. Maktab va o‘rta maxsus ta’lim fan kursining mantiqiy-didaktik tahlili. Ta’limning frontal, jamoaviy, guruhiy, individual shakllarining o‘ziga xos xususiyatlari va o‘zaro aloqadorligi.

**Fanni o‘qitishning tashkiliy shakllari.** Dars va uning xususiyatlari. Asosiy dars tiplari. O‘qituvchining darsga tayyorlanish tizimi. O‘quvchilar bilimi, ko‘nikma va malakalarini tekshirish va baholash: nazorat ishlari, mustaqil ishlar, uy vazifalari, test sinovlari. Fanni o‘qitishda asosiy vositalar: darsliklar, didaktik va metodik qo‘llanmalar, jadvallar, modellar, sxemalar, kompyuter va boshqalar.

**Fan xonasi.** Fan bo‘yicha sinfdan tashqari ishlar va ularning asosiy funksiyalari. Fanning asosiy ko‘rinishlari va tasnifi. To‘garak, fakultativ mashg‘ulotlar va olimpiadalar tashkil qilish.

**Pedagogik tajribalarni o‘tkazish.** Fanni o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar o‘tkazishning o‘rni, ahamiyati va asosiy vazifalari. Pedagogik tajribani o‘tkazishning tasdiqllovchi, shakllantiruvchi, ta’limiy, umumlashtiruvchi kabi asosiy bosqichlari va boshqalar.

Matematik-statistik metodlardan foydalanib olingen ma’lumotlarni qayta ishslash va tahlil qilish.

## Fanning xususiy masalalari.

**Filologiya fanlari yo‘nalishi.** Mazkur o‘quv predmetining nazariy asoslarini; badiiy asarni didaktik va lingvistik tahlil qilish va baholash mezonlarini bilishi; ona tili o‘qitishda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq malakalarini o‘stirishning shakl va usullarini; dars jarayoniga qo‘srimcha adabiyotlarni, yangi axborot hamda turli pedagogik texnologiyalarni jalb qila olishni, metodika sohasidagi yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalarini bilishi kerak. Filologiya fanlarini o‘qitish metodikasi, fanining maqsad va vazifalari. O‘quv peremeti sifatida filologiya fanlariga xarakteristika, o‘qitish usuliga xarakteristika, filologiya fanlaridan Davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturi, o‘qitishning an’anaviy va ilmiy usullari, filologiya fanlarini o‘qitishni tashkil etish shakllari, filologiya fanlarini o‘qitishda ta’lim vositalari ko‘rgazmali qurollar va o‘qitishning texnik vositalari, uzlucksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida filologiya fanlarini o‘qitishning innovatsion pedagogik faoliyatini amalga oshirish usullari. Filologiya fanlarining boshqa fanlar bilan bog‘lanishi, fanlarni o‘qitishda keyslar ishlab chiqish va ularni o‘quv jarayoniga joriy qilish metodikasi, o‘qitishning asosiy shakli – dars. Dars turlari va tuzilishlari, yangi materiallarni o‘rganish, fanlarning o‘quv predmeti haqida tushincha, o‘qitishning umumiyligi metodikasi, filologiya fanlarining dasturlari, darsliklarining tuzilishi, darslarda modul tizimidan foydalanish, muammoli ta’lim to‘g‘risida tushuncha, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning filologiya fanlarini o‘qitishdagi ahamiyati.

**Aniq va tabiiy fanlar yo‘nalishi.** Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari. O‘quv peremeti sifatida aniq fanlarga xarakteristika, o‘qitish usuliga xarakteristika, aniq va tabiiy fanlardan Davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturi, o‘qitishning an’anaviy va ilmiy usullari, aniq va tabiiy fanlarni tashkil etish shakllari, aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda ta’lim vositalari, ko‘rgazmali qurollar va o‘qitishning texnik vositalari, uzlucksiz ta’lim tizimining barcha boschiqlarida aniq fanlarni o‘qitishning innovatsion pedagogik faoliyatini amalga oshirish usullari. Aniq fanlarning tabiiy va gumanitar fanlar bilan bog‘lanishi, fanlarni o‘qitishda keyslar ishlab chiqish va ularni o‘quv jarayoniga joriy qilish metodikasi, o‘qitishning asosiy shakli – dars. Dars turlari va tuzilishlari, yangi materiallarni o‘rganish, fanlarning o‘quv predmeti haqida tushuncha, o‘qitishning umumiyligi metodikasi, qisqacha tarixi, tabiiy fanlarning dasturlari, darsliklarining tuzilishi, darslarda modul tizimidan foydalanish, muammoli ta’lim to‘g‘risida tushuncha, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning tabiiy fanlarni o‘qitishdagi ahamiyati. O‘qitishning material bazasi xillari, o‘quv xonasi va tirik tabiat burchaklarini tashkil qilish hamda jihozlash.

**Xorijiy tillar.** Chet tilini amaliy egallash jahon miqyosida ro‘y berayotgan globalizatsiya va integratsiya jarayonlarining muhim vositalaridan biridir. Chet tilini o‘rgatishning ilmiy asosga ega bo‘lgan ta’lim metodikasi. Mamlakatimizda chet tili

o‘qitish metodikasiga doir bajarilgan ilmiy ishlar. Mazkur sohada amalga oshirilayotgan ishlar. Chet tillarni o‘qitish metodikasining o‘ziga xos muammolari. Metodik terminlarning talqini, jahon chet tillar o‘qitish metodikasida vujudga kelgan zamonaviy nazariyalar. Chet tili o‘qitishning maxsus tamoyillari. Didaktik tamoyillarni chet tili o‘qitish metodikasiga tatbiq etish xususiyatlari. Chet tili o‘qitish metodikasi tamoyillarining mazmun-mohiyati. Chet tili o‘qitish vositalari. Asosiy vositalar. Yordamchi vositalar. Chet tili o‘qitish vositalarini tasniflari. Chet tili o‘qitishda informatsion texnologiyadan foydalanishning mohiyati. Chet tilini o‘qitish xususiy metodikasi. O‘rta umumta’lim muassasalarida chet tili o‘qitish metodikasi.

Bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi talab qilinadi: Ingliz tili amaliyoti (ingliz tili amaliy kursi, ingliz tili amaliy fonetikasi va ingliz tili amaliy grammatikasi). Ingliz tili nazariyasi (ingliz tili nazariy fonetikasi, ingliz tili nazariy grammatikasi, ingliz tili leksikologiyasi, ingliz tili stilistikasi, ingliz tili tarixi, tarjima nazariyasi, mamlakatshunoslik, german filologiyasiga kirish). Ingliz tili o‘qitish metodikasi (Chet tili o‘qitish metodikasi tarixi, O‘zbekistonda chet tili o‘qitish tarixi, o‘rta va oliy mактабда ingliz tili o‘qitish metodikasi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida chet tili o‘qitish metodikasi, qiyosiy metodika, maxsus metodika, mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi). Inglizzabon mamlakatlar adabiyoti (Angliya adabiyoti, AQSh va boshqa inglizzabon mamlakatlar adabiyoti, inglizzabon adabiyotning o‘zbek tiliga tarjimasi). Tilshunoslik (umumiyl tilshunoslik, ingliz va ona tillari qiyosiy tipologiyasi, lingvistik tadqiqot asoslari)

**Ijtimoiy va gumanitar fanlar.** Tarix fanini o‘qitishga qo‘yiladigan talablar. Tarix fanini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan uzviy foydalanish. Tarixni o‘qitishda barkamol shaxsni voyaga yetkazish muammolari. Tarixni o‘qitishda o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali kelajak ma’naviyatli barkamol shaxsni voyaga yetkazish yo‘llari. Tarixni o‘qitishda o‘quvchilarda mustaqil, ijodiy, tahliliy va tanqidiy fikr yuritish ko‘nikmalarini tarkib toptirish. Tarixni o‘qitishda o‘quv munozaralari va Keys texnologiyasidan foydalanish orqali ularda mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. O‘zbekistonda davlatchilik muammolari va tarixni o‘qitishda mazkur masalalarni hal etish yo‘llaridan foydalanish muammolari. Tarixni o‘qitishda o‘quvchilarda ongli intizom, burch, ma’suliyatni tarkib toptirish muammolari. Geografiya o‘qitish nazariyasi va metodikasi fanining maqsadi geografiya o‘qitish metodikasining nazariy va metodologik muammolarini ochib berish hamda geografiya o‘qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish yo‘llari. Darsliklar va DTS talablari, o‘quv dasturlari, boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (*maktab ta’limi yo ‘nalishi*) ixtisosligi bo‘yicha imtihon savollari**

1. Pedagogik fanlarni o‘qitishda amaliy metodlarning ahamiyati.
2. Pedagogik fanlarni o‘qitishda induktiv va deduktiv metodlardan foydalanish.
3. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish shakl, metod va vositalari.
4. Ta’lim metodlari, ularning klassifikatsiyasi. Interfaol metodlar.
5. Fanni o‘qitish jarayonida ta’lim vositalaridan foydalanish metodikasi.
6. O‘qitishning didaktik vositalari orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi.
7. Davlat ta’lim standartlari, ishchi va o‘quv rejalar, ularning tuzilishi.
8. Ta’lim jarayonining tuzilishi, maqsadlari va natijalari.
9. Darsning psixologik-pedagogik tahlili, o‘quvchi shaxsi va guruh jamoasi.
10. Fanni o‘qitishning empirik metodlari: kuzatish, tajriba, o‘lchash.
11. Fanni o‘qitishning mantiqiy metodlari: taqqoslash va analogiya, umumlashtirish, abstraksiyalash, aniqlashtirish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez.
12. Pedagogik mahorat, pedagogik mahorat komponentlari.
13. Ta’lim mazmuni, ta’lim mazmunini me’yorlovchi normativ hujjatlar.
14. Ta’lim texnologiyalari va o‘qitish metodlari.
15. Pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari.
16. Rivojlantiruvchi, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan, modulli, muammoli, didaktik, o‘yinli, kontekstli, axborotli, tabaqlashtirilgan, multimediali, o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi texnologiyalar.
17. Ta’lim nazariyasi va metodlari. Metod haqida tushuncha va uning tasnifi.
18. Ta’limning og‘zaki metodlari, o‘qitishning induktiv va deduktiv metodlari.
19. Reproduktiv va muammoli-izlanuvchan o‘qitish metodlari.
20. O‘qitishda o‘quvchini rag‘batlantirish metodlari.
21. O‘qitishni va uning natijalarini nazorat qilish metodlari.
22. Ta’limda innovatsion jarayonlar.
23. O‘qitishning sinf dars tizimi.
24. O‘qitishni tashkil etish shakllari.
25. Ta’lim mazmuni va uni tanlashga qo‘yiladigan talablar.
26. Ta’lim metodlari va uni tanlashga qo‘yiladigan didaktik talablar.
27. Fanni o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalarining o‘rni.
28. Fanni o‘qitishning metodik asoslari, tarkibiy qismlari.
29. Darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi.

30. Dars tahlili: strukturasi, baholash va loyihalashtirish.
31. O‘qitishni dialogli, guruhli va ommaviy (frontal) tashkil etish shakllari. Asosiy dars tiplari.
32. O‘qituvchining darsga tayyorlanish tuzimi.
33. O‘quvchilar bilimi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash.
34. Fanni o‘qitishda asosiy vositalar: darsliklar, o‘quv, o‘quv-metodik qo‘llanmalar, jadvallar, modellar, sxemalar, kompyuter va boshqalar.
35. Fan xonasi. Fan bo‘yicha sinfdan tashqari ishlar va ularning asosiy funksiyalari. Fanning asosiy ko‘rinishlari va tasnifi.
36. Fanni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishning ahamiyati.
37. Fanni o‘qitishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni va roli.
38. Fanni o‘qitishda muammoli ta’lim texnologiyalari.
39. Keys-stadi: texnologiya, metod va vosita sifatida.
40. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalarining ahamiyati.
41. Fanni o‘qitishda elektron ta’lim muhiti loyihasini ishlab chiqish metodikasi.
42. “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalarining mazmuni va mohiyati.
43. Fan o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi.
44. Ta’lim oluvchilarning fan bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetensiyalarini nazorat qilish va baholash tizimi.
45. Xalqaro baholash dasturlari (TIMMS, PISA, PIRLS, TALIS) haqida umumiyligi tushunchalar.
46. Fanni o‘qitish jarayonida ta’lim vositalaridan foydalanish metodikasi.
47. O‘qitishda o‘quvchini rag‘batlantirish metodlari.
48. O‘qitishni va uning natijalarini nazorat qilish metodlari.
49. O‘qitishni tashkil etishning boshqa shakllari: amaliyotlar, seminarlar va fakultativlar.
50. O‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini, o‘qitish natijalarini baholashda xolislik, “formalizm”ga yo‘l qo‘ymaslik lozimligi.
51. O‘qituvchi rahbar va tarbiyachi sifatida.
52. Moddiy-ma’naviy madaniyat elementlari va predmetlari ta’lim vositasi sifatida.
53. O‘quvchilar bilimi, ko‘nikma va malakalarini tekshirish va baholash: nazorat ishlari, mustaqil ishlar, uy vazifalari, test sinovlari.
54. Ta’lim mazmunini didaktik vositalar orqali modellashtirish.
55. Ta’lim vositalarining ko‘pxilligi va uni sistemalashtirish.
56. Fan bo‘yicha laboratoriya, amaliy va seminar mashg‘ulotlarining maqsadi, vazifalari, ta’lim-tarbiya jarayonida tutgan o‘rni.

57. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, estetik va ma’naviy tarbiya.
58. Fanni o‘qitish metodikasining tarkibiy qismlari.
59. Fan xonasi. Fan bo‘yicha sinfdan tashqari ishlar va ularning asosiy funksiyalari.
60. Fanda uzviylik va uzlucksizlik masalalari.
61. Fanni o‘qitish metodikasining predmeti, maqsadi va vazifalari.
62. Fanni o‘qitish metodikasining tadqiqot usullari va ularning nazariy hamda metodologik asoslari.
63. Fanni o‘qitishdagi asosiy vositalar: darslik, didaktik va metodik qo‘llanma, jadval, model, sxema, kompyuter va boshqalar.
64. Fanni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanish.
65. Fanni o‘qitishda barkamol shaxsni voyaga yetkazish masalasi.
66. Fanni o‘qitishda o‘quv munozaralari va Keys texnologiyasidan foydalanish orqali ularda mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.
67. O‘quvchilarda mustaqil, ijodiy, tahliliy va tanqidiy fikr yuritish ko‘nikmalarini tarkib toptirish.
68. Didaktik tamoyillarning fanni o‘qitish metodikasiga tatbiq etish xususiyatlari.
69. Fanni o‘qitishning metodlari va shakllari. Ularning tasnifi. Fanni o‘qitishning tashkiliy shakllari.
70. Metodika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.
71. Ta’limda onglilik va faollik tamoyili.
72. Ta’limda nazariya va amaliyotning o‘zaro bog‘liqligi.
73. Ta’limda ko‘rgazmalilik.
74. O‘quvchilar bilimini mustahkamlash tamoyillari.
75. O‘quvchini mantiqiy fikrlashga o‘rgatish – ta’limning asosiy maqsadi ekanligi.
76. Metod va metodika haqida umumiy tushuncha.
77. O‘quvchilarni darslik va o‘quv qo‘llanmalar bilan ishlashga o‘rgatish metodikasi.
78. Fanni o‘qitishning metodlari va shakllari. Ularning tasnifi. Umumdidaktik va xususiy predmetli o‘qitish metodlarining o‘zaro aloqadorligi.
79. Ta’lim metodlari klassifikatsiyasi. Interfaol metodlar mohiyati.
80. Asosiy dars tiplari. O‘qituvchining darsga tayyorlanish tizimi.
81. Fan xonasi. Fan bo‘yicha sinfdan tashqari ishlar va ularning asosiy funksiyalari. Fanning asosiy ko‘rinishlari va tasnifi.
82. Pedagogik tajribalarni o‘tkazish.

83. Fanni o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar o‘tkazishning o‘rni, ahamiyati va asosiy vazifalari.
84. Pedagogik tajribani o‘tkazishning asosiy bosqichlari: tasdiqlovchi, shakllantiruvchi, ta’limiy, umumlashtiruvchi va boshqalar.
85. Metodikaning asosiy tamoyillari.
86. Fanni o‘qitishning maxsus tamoyillari. Didaktik tamoyillarning fanni o‘qitish metodikasiga tatbiq etish xususiyatlari.
87. Fanni o‘qitishning psixologik tamoyillari mohiyati.
88. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili” haqidagi qonuni.
89. Ta’lim va shaxs. Ta’lim va jamiyat. Ta’lim, fan va madaniyat.
90. Fanni o‘qitish metodikasining tadqiqot usullari va ularning nazariy hamda metodologik asoslari.
91. O‘qitish metodlari va ularni guruhlashтирishning nazariy va metodologik asoslari.
92. Fanni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan uzviy foydalanish.
93. Fanni o‘qitishda barkamol shaxsni voyaga yetkazish muammolari
94. Fanni o‘qitishda o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali yuksak ma’naviyatli barkamol shaxsni voyaga yetkazish yo‘llari.
95. Fanni o‘qitishda o‘quvchilarda mustaqil, ijodiy, tahliliy va tanqidiy fikr yuritish ko‘nikmalarini tarkib toptirish.
96. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda fan va kasb tanlashga yo‘llash ishlarining mazmuni, uning tashkiliy-pedagogik, metodik va ilmiy asoslarini tahlil va tadqiq qilish, bu boradagi ilg‘or g‘oyalar, fikrlar, usul hamda uslublar.
97. Ta’lim muassasalarining tiplari.
98. Fan bo‘yicha laboratoriya, amaliy va seminar mashg‘ulotlarning maqsadi, vazifalari, ta’lim-tarbiya jarayonida tutgan o‘rni.
99. Fan o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini baholash.
100. Ta’lim oluvchilarda yozma va og‘zaki nutq madaniyatini takomillashtirish usul va vositalari.
101. Ta’lim maqsadlari va taksonomiyalari, rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi; o‘quv faoliyati nazariyasi va uning subyekti; mazmunli umumlashtirish nazariyasi; aqliy xatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi.
102. Ta’limning ikki tomonlama va shaxsga yo‘naltirilgan harakatlari. O‘qitish va o‘qish jarayonining yagonaligi.
103. Pedagogik fanlarni o‘qitishda ijodiy testlardan foydalanish metodikasi.
104. Pedagogik fanlarni o‘qitishda grafik organayzerlarning o‘rni.

105. Pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish.
106. Pedagogik fanlarni o‘qitishda foydalaniladigan mustaqil ish turlari va ularning samaradorlik darajasi.
107. Seminar mashg‘ulotlari va ularga qo‘yiladigan didaktik talablar.
108. Amaliy mashg‘ulotlar va ularni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari.
109. Pedagogik fanlarni o‘qitishda darslik bilan ishslash texnologiyasi.
110. Pedagogik fanlarni o‘qitishda matn tuzish texnologiyasi.
111. Pedagogik fanlarni o‘qitishda ta’limning texnik vositalaridan foydalanish yo‘llari.
112. Tushuntirishli-ko‘rgazmali ta’lim: afzalliklari va kamchiliklari.
113. Pedagogik fanlarni o‘qitishda muammoli ta’limni tashkil etish.
114. Pedagogik fanlarni o‘qitishda muammoli vaziyatlardan foydalanish metodikasi.
115. Pedagogik fanlarni o‘qitishda dasturlashgan ta’limdan foydalanishning imkoniyatlari.
116. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat jarayonlari va o‘qituvchi psixologik tayyorgarligi deganda nimani tushunasiz?
117. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat fani mazmunini takomillashtirishga doir qanday fikringiz mavjud?
118. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat fanining predmeti va vazifalarini mustaqil tahlil eting.
119. Pedagogik texnologiyalarni amalga oishrishda qanday usullardan foydalaniladi?
120. Pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishda qanday usullardan foydalaniladi?
121. Pedagogik texnologiyalarni shaxsiy faoliyatningizda qo‘llashni nimalardan boshlappingiz kerak.
122. Pedagogik texnologiyalarning ta’lim-tarbiya jarayoni sifatidagi tarkibi nimadan iborat?
123. Pedagogik texnologiyalarning ta’riflaridan bilasizmi?
124. Pedagogik texnologiyaning ta’riflaridan foydalangan holda yangi ta’riflarni ishlab chiqing.
125. Pedagogik faoliyat va uning metodikalari to‘g‘risida davra suhbati o‘tkazing.
126. Pedagogik faoliyat oliy nerv faoliyatining qonuniyatlarini qanday tushunasiz?
127. Pedagogik faoliyatda maqsad qanday aniqlanadi?
128. Pedagogning shaxsiy sifatlari va kasbiy mahoratini tahlil eting.
129. Pedagogga qanday talablar qo‘yiladi.
130. Reproduktiv bilish nazariy materiallarini o‘rganishda qanday ahamiyatga ega?

131. Reproduktiv bilish, ijodiy bilish, ilmiy va ratsional tushuntirish.
132. O‘quvchilar bilimini yaratish va uni ishlab chiqish deganda nimani tushunasiz?
133. O‘quvchilarning qanday ishchanlik sifatlari mavjud?
134. Tahliliy tafakkurni rivojlantirishda o‘qish va yozish loihasini aniqlang.
135. Tahliliy tafakkurni rivojlantirishning yangi istiqbollarini qanday ifoda etasiz?
136. O‘zlashtirishning mahsuldor va ijodiy izlanuvchanlikka asoslangan pedagogik texnologiyalar asosida amaliy o‘yinlar tashkil eting.
137. O‘qitishning qanday zamonaviy usullaridan foydalanish mumkin?
138. O‘quv jarayonida tahliliy tafakkurni anglash bosqichi qanday ifoda etiladi?
139. O‘quv jarayonida tahliliy tafakkurning anglash bosqichi qanday ifoda etiladi?
140. O‘quv jarayonini kashf etish orqali ta’lim berish usuli vositasida tashkil etish modelini qanday ifodalaysiz?
141. O‘quv natijalarining qanday darajalari mavjud?
142. O‘quv faolligi orqali maqsadlar qanday belgilanadi?
143. Fanni o‘zlashtirishda yangi texnologiyalardan foydalanish qanday ahamiyatga ega.
144. Hamkorlikdagi ta’lim olishning asosiy bosqichlarini tahlil eting. Emotsional barqarorlik, pedagogik texnika, kreativ, abstrakt tafakkur.
145. Muammoli o‘qitish texnologiyalari.
146. Muammoli vaziyat va muammoli vaziyatning belgilari, tarkibiy qismi.
147. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari va ularga tavsif.
148. Modulli va integral ta’lim texnologiyalari
149. Dasturlashtirilgan va tabaqaqlashgan ta’lim texnologiyalari.

### Baholash mezoni

Eng yuqori ball - 100 ball

Saralash ball - 56 ball

56 balldan - 70 ballgacha (70 - 55%) - qoniqarli

71 balldan - 85 ballgacha (71 - 85,9%) - yaxshi

86 balldan - 100 ballgacha (86 - 100%) – a’lo

1) talabgor javobi **86-100 ball** bilan baholanishi uchun:

- savolda qo‘yilgan masala mohiyati to‘liq adekvat anglanishi;
- javob berishda mustaqil va ijodiy fikrlashi;
- qo‘yilgan masala boshqa masalalar bilan bog‘lab tushuntirilishi;
- savol mazmunidagi masalaga doir ilmiy va hayotiy misollar keltirish;
- savoldagi masala yuzasidan yirik tadqiqotchi olimlar mulohazalarining esga olinishi;

- javob berishda ilmiy kategoriya va atamalar bilan erkin mulohaza yuritish lozim.

2) talabgor javobi **71-85 ball** bilan baholanishi uchun:

- savolda qo‘yilgan masala mohiyati to‘liq adekvat anglanishi;
- javob berishda ko‘proq reproduktiv yondashuv ustun bo‘lishi;
- qo‘yilgan masala boshqa yondosh masalalardan ayri holda tushuntirilishi;
- savol mazmunidagi masala yuzasidan faqat hayotiy mi sollar keltirilishi;
- savoldagi masala bo‘yicha faqat muayyan darslik va o‘quv adabiyotlari mualliflari fikrining esga olinishi;
- javob berishda ilmiy atamalardan erkin foydalana olmaslik, ularning faqat bir ma’nosи haqida tasavurga ega bo‘lishi.

3) talabgor javobi **56-70 ball** bilan baholanishi uchun:

- savolda qo‘yilgan masala birovning yordamidan keyin ham yetarlicha adekvat anglanmasligi;
  - javob berishda muayyan manbaga qattiq bog’lanib qolinishi;
  - qo‘yilgan masalaning boshqa masalalar bilan aloqasi haqidagi yordamchi ishoralarga e’tiborsizlik qilishi;
  - savol mazmunidagi masala yuzasidan bildiriladigan mulohazalar faqat kundalik kuzatishlar natijalari bilan chegaralanishi;
  - savoldagi masala bo‘yicha qaysi mualliflar mulohazasiga murojaat etganlikni bilmaslik kuzatilishi;
  - javob berishda ilmiy atamalarning faqat ommalashgan ma’nolarining tushunilishi, ularning chuqur ilmiy mohiyatini anglamaslikning aniqlanishi.
- Boshqa barcha holatlarda talabgor javobi 50 dan past ball bilan baholanishi to‘g‘ri bo‘ladi.

## **FOYDALANISHGA TAVSIY ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lism to‘g‘risida”gi Qonuni: 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>.
3. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni: 2017-yil 3-yanvar, O'RQ-419-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3088008>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni: 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4312785>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni: 2022-yil 28- yanvar, PF-60-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5841063>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda maktab ta'lmini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni: 2022-yil 11-may, PF-134-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6008663>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta'limi sohasidagi ilmiytadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori: 2021-yil 25-yanvar, PQ-4963-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5239538>.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta'limi xodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori: 2022-yil 17-yanvar, 25-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5828765>.
9. “Ta'lism – 2030” Inchxon deklaratsiyasi. – Inchxon: Janubiy Koreya. 2015.

### **I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng olyi bahodir. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 508 b.

## **II. Asosiy adabiyotlar**

1. Vaxobov X., Zaynuddinov A. Geografiya o‘qitish metodikasi. – T.: “Universitet”, 2001. – 80 b.
2. Musurmonova O., Ibragimov X., Jamolidinov O. Umumiy pedagogika. Darslik. I qism. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 376 b.
3. Mavlonova R.A. Umumiy pedagogika. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018. – 528 b.
4. Madiyarova S.A. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: “Iqtisodmoliya”, 2009.
5. Raxmatullayev N.G., Omonov X.T., Mirkomilov Sh.M. Kimyo o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008.
6. Rixsiboyev T. Muxandislik kompyuter grafikasini o‘qitish metodikasi (o‘quv qullanma). – T.: ToshDTU, 2009.
7. Saidaliyev S. (tarjimon). Chet tili o‘qitish metodlari. – Namangan: NamDU, 2005.
8. Sattarov T. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi (ingliz tili materialida). – T.: TDYuI, 2003.
9. Tuxliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: «Yangi asr avlod». 2006.
10. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Birinchi kitob. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2022. – 409 b. – 351 b.
11. G‘ulomov A, Qodirov M, Ernazarova M. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: «Fan va texnologiya», 2012. – 380 b.
12. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2008.
13. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: “Iste’dod”, 2010.
14. Ismailov A., Daminov H. va boshqalar. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnama. 1-son. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, soha mutaxassislari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan test topshiriqlari to‘plami. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2020. – 145 b.
15. Jumanazarov S. Ta’limda raqamli texnologiyalar. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: 2023. – 46 b.
16. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Nihol”, 2013. – 96 b.

17. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar – do'stona muhit yaratish omili.  
– Toshkent: YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi, 2005. – 128 b.

### **III. Elektron manbalar**

1. gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumati portali.
2. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
3. lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
4. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining rasmiy sayti.
5. infocom.uz – “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali sayti.
6. yemaktab.uz – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining raqamli ta'lim platformasi.
7. my.maktab.uz – umumta'lim maktablariga o'quvchilarni onlayn qabul qilish tizimi.
8. ziyonet.uz – axborot ta'lim portali.
9. google.com – ommabop axborot-qidiruv tizimi.





